

TA'LIM JARAYONIDA ZIGMUND FREYDNING PSIXOLOGIK QARASHLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM VAZIFALARI

Rustamova Ra'no Nasriddinovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani

17-IDUM psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada psixologiya fanida Zigmund Freyd nazariyalarining o'rnini, ularning inson ruhiyatini o'rganishdagi ahamiyati hamda zamonaviy psixologiyada qo'llanish afzalliklari yoritiladi. Shuningdek, psixoanaliz nazariyasining shaxs rivojlanishi va psixologik yordam jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: psixoanaliz, Zigmund Freyd, ong osti, psixologik nazariya, shaxs rivojlanishi, motivatsiya, emotsional holat, psixologiya.

KIRISH

Psixologiya fanining rivojlanishida Zigmund Freydning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. U inson ruhiyatini chuqur o'rganishga asoslangan psixoanaliz nazariyasini yaratgan olim sifatida tanilgan. Freyd nazariyasiga ko'ra, inson xulq-atvori va hissiyotlariga ong ostidagi jarayonlar katta ta'sir ko'rsatadi. Insonning ayrim harakatlari va kechinmalari bolalik davridagi tajribalar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Psixoanaliz nazariyasi shaxsni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv insonning yashirin hissiyotlari, ichki ziddiyatlari va emotsional muammolarini tahlil qilish imkonini beradi. Freyd inson ruhiyatini uch tarkibiy qismga ajratgan: "Id", "Ego" va "Superego". Ushbu tushunchalar orqali insonning ichki ehtiyojlari va xulq-atvori izohlanadi. Psixologik amaliyotda Freyd nazariyalaridan foydalanishning asosiy afzalliklaridan biri — insonning ichki kechinmalarini anglashga yordam berishidir. Bu psixologik muammolar sababini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, psixoanalitik yondashuv stress, xavotir va emotsional zo'riqishlarni tushunishda samarali hisoblanadi. Insonning hissiy holatini chuqur tahlil qilish psixologik yordam sifatini

osHIRADI. Freyd nazariyalari zamonaviy psixologiyada ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, shaxs psixologiyasi va klinik psixologiya sohalarida ushbu yondashuvdan keng foydalaniladi.

Bolalik davridagi psixologik tajribalarni o'rganish orqali insonning keyingi hayotdagi xulq-atvorini tushunish mumkin. Bu esa tarbiya va psixologik profilaktika jarayonida muhim hisoblanadi. Psixoanaliz insonning o'zini anglashiga ham yordam beradi. Shaxs o'z hissiyotlari va ichki ziddiyatlarini tushunishi orqali ruhiy barqarorlikka erishadi. Biroq Freyd nazariyalari ayrim jihatlari bilan tanqid ham qilingan. Shunga qaramay, uning ilmiy qarashlari psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Psixologik tadqiqotlarda Zigmund Freyd asoslab bergan ilmiy izlanishlar insonning kognitiv-ruxiy xususiyatlarini tushuntirib bera oluvchi muhim nuqtayi nazarlarni ilgari surgani uchun ham ta'limda, jumladan shaxsga yo'naltirilgan ta'limda muxim vosita bo'la oladi. Freydning qarashlari inson ruxiy olamining davriy o'zgarishlari va uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi determinanatlarni aniqlashga yordam bera oladi. Garchi Freydning qarashlari, jumladan psixoanaliz ziddiyatli jihatlarni qamrab olsa ham, uning ba'zi jihatlari ilmiy tadqiqotlarda ko'plab yangiliklarni ilgari surdi va rivojlanishga xizmat qildi. Diagnostik va klinik amaliyot sifatida umumiy tanazzulga uchragan bo'lsa-da, psixoanaliz psixologiya, psixiatriya, psixoterapiya va gumanitar fanlarda ta'sirchan bo'lib qolmoqda. Uning pedagogik psixologiyada qo'llanishi ta'lim natijadorligiga erishishda psixologik jihatdan muhimdir.

Yangi O'zbekiston ta'limida ta'lim oluvchilarning har tomonlama kamol topishlariga qaratilgan islohotlar belgilanganligi psixologik tadqiqotlarning ijobiy samaralaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ruxiy barkamollik har bir jamiyatning yoshlarini tarbiyalanishida muxim ahamiyatga ega. O'quvchi-talabalar bilan ishlashda ularning temperamenti, qobiliyatlarini, qiziqishlarini aniqlash, ularni bilimga yo'naltirish professor-o'qituvchining psixologik tajribasiga ham bog'liq bo'lgani uchun ham yurtimizda Freyd psixologiyasining milliy mentalitetimizga mos va ilmiy asoslangan natijalaridan foydalanish mumkin.

Insonda aql-idrok yoki his-tuygʻularning qaror qabul qilishda muntazam taʼsir koʻrsatishi Freyd nazariyasida koʻrsatiladi. Pedagog boshlangʻich sinflarga taʼlim berishda ularning emotsional intellektga beriluvchanligi, ishonuvchanligi va hotiraning kuchli davri boʻlishini inobatga olishi zarur. Bolalar bu davrda oʻqituvchiga nisbatan kuchli bogʻlanganligi ularning ruxiy olamini va taʼlim olishdagi qiziqishlarini toʻgʻri yoʻnaltira olishda pedagogning oʻrni seziladi. Shaxsning oʻz-oʻzini anglashidagi keyingi bosqichlarga qadam qoʻyiladigan oʻsmirlik va undan keying davrlarda individual farqlanishlar kuzatiladi. Freyd ego va id oʻrtasidagi munosabatni aravachi va uning otlari oʻrtasidagi munosabat bilan taqqosladi: otlar energiya va harakatni taʼminlaydi. Bunda yosh oʻtgan sari insonda hissiyotlardan koʻra aqlga tayanish ortib boradi. Bu barcha insonlarda ham bir xilda kechmasdan melanxolik temperamentdagi shaxslarda juda murakkab kechadi.

Freyd qarashlarida teologik, ijtimoiy, axloqiy-estetik qadriyatlarga mutanosib boʻlgan qarashlar ham ilgari surilsa-da, Freyd insonning ichki ruxiy olamini ushbu jamiyat normalari bilan kelishishi lozimligi masalasiga liberal munosabatda boʻladi. Freydning jamiyat qadriyatlari borasidagi qarashlarini pedagogik jarayonlarga tatbiq etish bizning jamiyatimiz pedagogik tafakkuriga mos kelavermaydi. Freyd qarashlariga taʼlim jarayonida qoʻllanishida holisona yondashuvni tanlar ekanmiz shu kabi nizoli jihatlarga ham toʻxtalib oʻtish lozim. Pedagog ushbu jarayonlarni nazoratga olishni uddalay olishi uchun har bir yoshdagi oʻquvchining ruxiy oʻzgaruvchanligini yaxshi anglashi uchun ham Freydning psixologik nazariyalarini anglay olishi zarur. Axloqiy qadriyatlardan pedagogik jarayonlarda foydalanish esa, jamiyatda mavjud stereotiplar, yuksak qadriyatlarning bardavomligini saqlash uchun taʼlim oluvchilarda ularni ruxiy va aqliy jihatdan mustahkamlashni nazarda tutadi.

Freydning nazariyalarida pedagogik jarayonlardagi oʻquvchilarning ongsiz jarayonlar va bosimlar natijasida psixik buzilishlari va xarakter-xususiyatlarida kuzatiladigan tub burilishlar bilan bogʻliq jarayonlar ilmiy-psixologik yoritib beriladi. Bosim Freyd tomonidan repressiya sifatida ifodalanib, shaxsning oʻziga yoki boshqa bir shaxs yoki narsaga qaratilgan kuchli motiv sifatida beriladi va uni yoʻnaltirish uchun oʻz

mulohazalarini bildiradi. 1890-yillarning boshlarida Freyd Jozef Breuer unga ta'riflagan davolash usulidan foydalangan, u o'zining "bosim texnikasi" deb atagan va yangi ishlab chiqilgan tahliliy talqin qilish va qayta qurish texnikasi bilan o'zgartirilgan.

Pedagogik jarayon misolida repressiyani izohlab ko'raylik. O'qituvchi oilaviy nizo yoki rahbarlar tomonidan tanqidga uchradi va bu holatlarda dominantlikni namoyon eta olmadi. U o'ziga ishlatilgan bosimni o'zidan boshqaga yo'naltirishi mumkin. O'quv-qurollarini sindirishi, boshqalarga zarra bilan munosabat ko'rsatishi hatto tajovuzkorlik qilish bilan qasos olishga harakat qilishi mumkin. Asabiylashish va ruxiy buzilishlar kuzatiladigan o'qituvchilarda ayniqsa bu holatlar tez-tez takrorlanishi ham mumkin. Boshqa tomondan, ushbu holat o'quvchilarda ham u yoki bu tarzda uchrashi mumkin bo'ladi.

Pedagogning bundagi vazifasi repressiyani ijobiy tomonga burish orqali o'quvchitalabalarni nazoratda ushlay olishdan iborat. Bunday inson bilan muloqotdagi chigallikni hal etishda bir qator ijobiy yechimlarni Zigmund Freyd tushuntirib beradi. Freyd bunda barchaga umumiy bo'lgan yondashuvni beradi. Ushbu yondashuvlarning pedagogik jihatdan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq. Pedagog o'quvchiga qo'pollik qilib, bilim va o'zlashtirishiga past baho bersa, o'quvchi bunday holatda unga noto'g'ri munosabatda bo'linganini isbotlash uchun astoydil mavzuni o'rganishga harakat qiladi va buni amalda ko'rsatib o'qituvchiga o'z uslubida javob qaytaradi. Bu holatda o'ziga nisbatan qilingan repressiyani qaytarishda nisbatan odilona yo'l tutiladi.

Bundan mustasno holatda qadr-qimmatini kamsitilgan deb hisoblagan o'quvchi o'qituvchiga nisbatan qarshilik qilib o'zlashtirishga qarshilik qiladi. Fan yoki mavzuga qiziqsa ham o'qituvchiga nisbatan adovatda davom etadi. Buning oqibatida vaziyat yanada murakkablashadi. Pedagog muomala madaniyatida muvozanatni saqlagan holda o'quvchilarga ta'limiy va ruxiy jihatdan individual yondashuvni yaxshi o'zlashtirishi zarur. Freyd repressiyaga javob qaytarishda ijobiy javob qaytarish insonning o'zi uchun ham foydali bo'lgan va boshqalarga zarar keltirmaydigan yo'lni tanlashida insonga tengdoshlari, o'qituvchilari va ota-onasi kuchli ta'sir ko'rsatishini yaxshi bilgani uchun ham ijtimoiy muxitga jiddiy e'tibor qaratadi. Freyd ruhiy buzilishlarning zamini, bugungi

bezovtalanishlarning sababi mijozlarning o‘tmishi bilan bog‘liq, bolalikdagi tuyg‘ulariga borib bog‘lanishini ta’kidladi.

Freydning repressiya va unga insonning javoblari to‘g‘risidagi qarashlari ongsiz aql va ong osti nevrologik jarayonlarini o‘rganishsiz amalga oshmas edi. Freyd aniq ta’kidlaganidek, uning ongsiz tushunchasi birinchi marta shakllantirganidek, repressiya nazariyasiga asoslanadi. Inson hayoti mobaynida yuzlashadigan turli vaziyatlar ma’lum bir muddat uchun inson ongida hukmronlik qiladi va vaqt o‘tishi bilan almashib boradi. Shunday holatlarda ular butkul yo‘qolib ketmaydi va nafaol ko‘rinishda inson aqliy-ruxiy xususiyatlariga ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Bunday jarayon insonga umri davomida ta’sir qilgani uchun ham kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish, psixik buzilishlarni yomonlashtirishi yoki ijobiy rivojlanishga yordam berishi mumkin. Ta’lim olish davrida tashqi faktorlarga kuchli ta’sirchanlik bo‘lgani uchun ham pedagog bunday holatlarni anglay bilishi lozim.

Ong osti jarayonlarida qanday ruxiy jarayonlar kechishi masalasiga Freyd ijtimoiy normalarga mos kelmaydigan qarashlarni ham o‘rtaga tashlagan bo‘lsa-da, uning ong ostida o‘tkinchi g‘azab, nafrat, quvonch, mamnuniyat kabi emotsional holatlar doimiy ta’sir etib borib uning shaxs sifatida shakllanishini ta’minlashi haqidagi qarashi inson ruxiyatini tushunishga yordam beradi. Bunday ong ostidagi ruxiy jarayonlar salbiy ko‘rinishda bo‘lsa, inson ularni bostirish uchun ulardan e’tiborni chalg‘ituvchi boshqa narsalarga e’tibor qaratishi lozim. Qaysidir fandan yaxshi natija ko‘rsata olmagan o‘quvchi o‘zi uchun qulay bo‘lgan fandan yaxshi natijani qo‘lga kiritish bilan o‘z qobiliyatlariga nisbatan ishonchni saqlab qolishi mumkin.

Boshqa bir yo‘li muammoli vaziyat bilan to‘qnashishdan qochmaslik va uni chetlab o‘tmaslik bilan kurashish bo‘la oladi. Ziddiyatga borib qolgan inson bilan umuman aloqalarni uzish yoki cheklashga urinish, muvafaqqiyatsizlikka uchragan biror masalada qayta-qayta urinish bilan maqsalarga erishish, qiyinchiliklar va muammolarni boricha qabul qilishga urinish bilan bu holatlar muolaja qilinadi. Pedagog uchun bunday yondashuv eng maqbul va ijobiy yo‘l bo‘lib, o‘quvchilarga bunday kurashish yo‘llarini o‘rgata olishi zarur.

Freyd qarashlari insonni chuqur o‘rganish bilan uning qobiliyatlari, iste’dodlarini aniqlashtirishga va kasbga yo‘naltirishga ilmiy jihatdan yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu esa, pedagogik psixologiya uchun zarur bo‘lgan jihatdir. Freydning psixoanalitik falsafasi inson borlig‘ini vujudga keltirgan asoslarni aniqlashga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelish sabablari, individ turmush tarzi tamoyillarining hosil bo‘lishini tushuntirishga intiladi. Freyd yechimiga ko‘ra, inson ba’zi holatlarda o‘zi kuchli bo‘lgan kasb sohasidan boshqalarning ta’sirida voz kechishi mumkin va uning ushbu qobiliyatlari sun’iy bostirilishi mumkin. Shunday holatlar bo‘lmasligi uchun ham pedagogik psixologiya ta’lim oluvchilarning ushbu jihatlariga e’tibor qaratadi. Qobiliyatlarni kashf etish bunda o‘quvchilar tomonidan har doim ham to‘g‘ri aniqlanavermagani uchun ham o‘qituvchi aniqroq baholashni amalga oshirishi mumkin.

Umuman olganda, Freydning psixologik qarashlari, jumladan psixoanaliz nazariyasi, yangicha talqinlar va yechimlar bilan inson shaxsi va ruhiyatini tadqiq etishga uringan muxim tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Pedagogik psixologiya esa, ta’lim jarayonida inson ruhiyatining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarning rivojlanishi va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan soha bo‘lib, uning samarali pedagogik yondashuvlarini ishlab chiqishda Freydning qarashlari qo‘llanishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Zigmund Freydning psixologik nazariyalari inson ruhiyatini chuqur o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyalardan foydalanish psixologik muammolarni tushunish va samarali yordam ko‘rsatishda keng imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tom Burns *Our Necessary Shadow: The Nature and Meaning of Psychiatry* London: Allen Lane 2013 pp. 96–97.
2. Hothersall, D. 2004. “History of Psychology”, 4th ed., McGraw-Hill: NY p. 290
3. Freud, Standard Edition, vol. 7, 1906, p. 274;
4. U.Fayziyeva, N.Jumayev. Umumiy psixologiya: /O‘quv qo‘llanma. Buxoro: 2021. 146-bet.



5. Wollheim, Richard (1971). Freud. London, Fontana Press, p. 157
6. M. Lafasov va boshq. Jahon tarixi: 9 darslik/ 3-qayta ishlangan va tuzatilgan nashr. — Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2014. 147-bet.